



MAHMUDHO'JA BEHBUDIYNING PEDAGOGOK QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

O'rinova Xadiyaxon Nizomiddinovna

Oriental universiteti 1-bosqich magistranti

E-mail: xadiyao'rinova26@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jadid ma'rifatparvar olimi, pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari, uning me'rosini zamonaviy ta'lim tizimidagi muhim ahamiyatli haqida fikrlar bildirilgan. Behbudiyning ta'limga oid g'oyalari o'z davrida milliy ma'rifatparvarlik harakatining asosiy omillaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, bugungi kunda ular o'qituvchilar hamda talabalarga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'rganish va o'zlashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda zamonaviy o'qituvchining roli hamda vazifalari Behbudiyning pedagogik qarashlari orqali hozirgi davr yosh avlodga samaraliroq va ta'sirli yetkazishning muhim va ahamiyatli tamonlari haqida fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik qarashlar, zamonaviy ta'lim tizimi, ta'limga oid g'oyalar, ma'rifatparvarlik, pedagogik metodlar, zamonaviy o'qituvchilik faoliyati.

Kirish: Jamiyatda ijtimoiy hayotining eng muhim tizimi ta'limiy jarayon sanalib, hech istisnosiz, muayyan davrning madaniy-ma'naviy, shuningdek, siyosiy-huquqiy saviyasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi uchun ta'limiy islohot muqarrar zaruriyat: bunda muayyan shaxs tomonidan havola etiladigan pedagogik qarashlar mavjud ta'limiy jarayonga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentim Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga yo'llagan



murojaatnomasida jadidlar merosini chuqur o'rganish haqida: "...Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"[1;] deya ta'kidlagan edi.

Zamon talabiga xos ishlab chiqilgan pedagogik tamoyillar – o'qituvchining ta'lim va, tarbiyaga, o'quvchiga, bilimga, o'rgatish usullariga bo'lgan shaxsiy qarashlari, e'tiqodi va qadriyatlari – o'quv jarayonining yo'nalishi, sifati va samaradorligini belgilab beradi. Binobarin, shaxs pedagogik qarashlarining ta'limiy jarayonga qanday ta'siri ta'lim mazmunining tanlanishi, o'qitish uslublari, o'quvchiga bo'lgan munosabat, baholash mezonlari hamda tarbiyaviy ishlarga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini unutmaslik zarur. Xususan, har bir davrda muayyan shaxsning pedagogik qarashlari nafaqat ta'lim jarayonining shakli va mazmunini belgilaydi, balki o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning mustaqil fikrlovchi, jamiyatga foydali inson bo'lib kamol topishiga ham bevosita ta'sir qiladi [2;]. Shu bois, bundan qariyb yuz ellik yil avval Turkiston o'lkasida keng yoyilgan va xalq madaniy hayotini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan jadidchilik harakatlarining ustuvor yo'nalishi hisoblangan ta'limiy islohotning taniqli namoyandalarining pedagogik qarashlarini to'laqonli o'rganish va tadqiq etish barobarida, ularni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etishga bugunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmog'i hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi samaradorligi uchun muhimdir.

Bu esa, bevosita va bilvosita biz tomondan o'rganilib, o'quv jarayoniga tatbiq etilajak zamonaviy ta'limiy muhit barqarorligini ta'minlovchi muhim dasturulamal bo'lishi ehtimoldan xoli emas. XX asr boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy hayotda tub burilish yasagan jadidchilik harakatining ilg'or

g'oyalari o'laroq, islohotchilik ruhi va pedagogik qarashlari bilan zamonaviy o'zbek ta'lim tizimining shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Bu borada, jadidchilik harakati vakillarining hayoti va ijodini chuqur o'rganar ekanmiz, oradan yuz ellik yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar va ko'tarilgan muammolar bugungi kun uchun ham dolzarbligicha saqlanib qolganini kuzatamiz. Ushbu harakat vakillari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy alohida o'rin egallaydi. U o'z ijodi va ijtimoiy faoliyati orqali XX asr boshlarida jamiyatdagi murakkab vaziyatni yoritish, xalqni ongli hayot sari yetaklash, eskicha, sust turmush tarzidan chiqarish, milliy manfaatlarni ilgari surish hamda o'zbek xalqini ilm-fanli, taraqqiy topgan xalqlar safida ko'rish istagini qat'iy ifoda etganligi bilan ajralib turadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limga bo'lgan munosabati, uning barcha pedagogik g'oyalari va yondashuvlarida to'laonli aks etgan.

Asosiy qism: Mahmudxo'ja Behbudiy: Turkiston Ma'rifatparvarligining buyuk Pedagogik Merosi Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat jadidchilik harakatining asoschisi, balki Turkiston xalqining tafakkurini tubdan o'zgartirgan buyuk murabbiy va pedagogdir. Uning pedagogik qarashlari "Zamonaning ilmini egallash – najot yo'lidir" degan g'oya atrofida birlashgan. Uning pedagogik va ma'rifiy qarashlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. "Usuli Jadid" – Yangi Ta'lim Tizimi

Behbudiy an'anaviy maktablardagi quruq yod olish (sxolastika) usuliga chek qo'yib, "Usuli savtiya" (tovush usuli)ni joriy etishning ashaddiy tarafdori edi. Uning fikricha, bola bir necha yil davomida harflarni tanimay yurishi emas, balki bir necha oyda savodini chiqarishi lozim edi. Dunyoviy va diniy ilm uyg'unligi: U maktablarda faqat diniy ilmlar emas, balki matematika, geografiya, tarix va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishni shart deb bildi. Ona tilining ahamiyati: Behbudiy ta'limning ona tilida olib borilishini millatning o'zligini anglashi uchun birinchi qadam deb hisoblagan.

2. Darsliklar yaratish va metodika:

Behbudiy shunchaki nazariyotchi emas, balki amaliyotchi pedagog edi. U yangi usul maktablari uchun o'ndan ortiq darslik va qo'llanmalar yozdi:

"Risolai asbobi savod" (Savod chiqarish kitobi);

"Risolai jug'rofiyai umumiy" (Umumiy geografiya);

"Kitobat ul-atfol" (Bolalar xati).

U dars berishda ko'rgazmalilik va bolaning qiziqishini inobatga olish tamoyillarini ilgari surdi.

3. "Ikki emas, to'rt til lozim"

Behbudiyning eng mashhur pedagogik g'oyalaridan biri uning tillarni o'rganishga bo'lgan munosabatidir. U o'zining "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida quyidagilarni ta'kidlagan: axloqiy jihatlarni birlashtirishga urg'u beradi. Behbudiyning "Maqsad" asari: Bu asar o'z vaqtida zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillarini kiritgan. Behbudiyning pedagogik g'oyalari o'zining yuksak axloqiylik va madaniyatni targ'ib qilishga qaratilgan.

2. Ilmiy tadqiqotlar va maqolalar: So'nggi yillarda Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari bo'yicha bir qator ilmiy maqolalar nashr etilgan. Masalan, Behbudiyning metodologik yondashuvlari va uning zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Bu maqolalarda Behbudiyning ta'limga qo'shgan hissasi va uning ta'lim metodikasining o'ziga xosligi haqida so'z boradi.

3. Mahmudxo'ja Behbudiyning tarbiyani maktab ta'limida amalga oshirish haqidagi qarashlari: Behbudiyning boshlang'ich ta'limda tarbiya va ilm-fan tizimlarini uyg'unlashtirishdagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Uning ta'limda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, yoshlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berganligi alohida ta'kidlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari metodologik jihatdan zamonaviy pedagogika va ta'lim tahlili metodlariga mos ravishda yondashiladi. Mazkur tadqiqotda quyidagi

metodologiyalar qo'llaniladi: Tahliliy metod:Behbudiyning pedagogik qarashlarini o'rganishda tahliliy metoddan foydalaniladi. Bu metod orqali uning asarlarida ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi muhim tamoyillarni aniqlashga harakat qilinadi. Ayniqsa, uning boshlang'ich ta'limdagi metodik yondashuvlari, ma'naviy va axloqiy tarbiya berishdagi usullari tahlil qilinadi. Tarixiy-metodik metod:Behbudiyning pedagogik qarashlari tarixiy nuqtai nazardan o'rganiladi. U zamonining eng ilg'or fikr va g'oyalarga asoslanib, ta'lim tizimini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan. Tarixiy metod orqali, uning ta'lim tizimining tarixi, boshqaruv shakllari va pedagogik yondashuvlarining rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil qilinadi.

Taqqoslash metodologiyasi: Behbudiyning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta'lim tizimi bilan solishtirish orqali ularning ahamiyati va yangiligi baholanadi. Bu metod orqali uning ta'limga bo'lgan yondashuvining ilg'or va zamon bilan bog'liq jihatlari aniqlanadi.Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik faoliyatini amaliy jihatdan o'rganish, uning ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatlarini aniqlash uchun empirik tadqiqotlardan foydalaniladi. Bu metod yordamida uning tizimlarida qaysi metodikalarni muvaffaqiyatli qo'llaganligi va qanday natijalar bergani tahlil qilinadi.

Xulosa: Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy ta'lim tizimimiz uchun ham poydevor bo'lib xizmat qiladi. U tarbiya va ta'limni bir butunlikda ko'rgan, yoshlarni ham milliy qadriyatga sodiq, ham zamonaviy texnologiyalarni egallagan shaxslar qilib tarbiyalashni orzu qilgan. Xulosa:Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari, ayniqsa axloqiy qadriyatlarni singdirish va ma'naviyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Uning pedagogik qarashlari, bugungi ta'lim tizimiga to'g'ri yo'naltirilgan o'zgartirishlar kiritishda yordam beradigan asosiy g'oyalardan biridir. Behbudiyning ta'limga bo'lgan yondoshuvi nafaqat o'quvchilarning bilimini oshirish, balki ularda mas'uliyatli, vatanparvar va axloqiy jihatdan yetuk insonlar

shakllantirishni maqsad qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning boshlang‘ich ta‘lim va tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kun ta‘lim tizimiga ham katta ahamiyatga ega. U yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga e‘tibor qaratgan va ilm-fan, axloq, madaniyatni birlashtirishni maqsad qilgan. Talaba nuqtai nazaridan, Behbudiyning o‘quvchilarning intellektual va ma‘naviy rivojiga qaratilgan yondoshuvlarini o‘rganish, bugungi ta‘lim tizimida o‘quvchilarning bilim olishiga qo‘shimcha rag‘batlantirish kiritish uchun foydalidir. Uning ta‘limni omma uchun ochiq, teng va samarali qilish haqidagi fikrlari, ta‘lim tizimidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishda hamda zamonaviy pedagogik usullarni joriy etishda muhim o‘rin tutadi. Behbudiyning qarashlari, talaba va o‘qituvchilar uchun nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, o‘qitish metodikasini yanada mukammallashtirishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Oymatova Nilufar Mirjamolovna Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ularning zamonaviy ta‘lim tizimidagi o‘rni. Nomli maqolasi. 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15559953>.
3. O‘rmonov A. “Mahmudxo‘ja Behbudi va uning ta‘lim-tarbiyadagi o‘rni” – Toshkent, 2002.
4. Tashkentov I. “O‘zbek milliy ta‘limining rivojlanishi” – Toshkent, 2010.
5. Iskandarov SH. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarbiyaning ijtimoiy muhitdagi roli” – Toshkent, 2015.
6. Rahimov S. “Markaziy Osiyo ta‘lim islohotlari tarixi” – Toshkent, 2015.
7. Hodjayev M. “Islamic Reform and Education in Central Asia” Toshkent, 2023.
8. Abdug‘aniyev O. “Jadid maktablari va ularning pedagogik asoslari.” Toshkent, 2002.